

IQTISODIY RISKLARNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**Nosirov Muzaffar Tolib o'g'li**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Menejment" kafedrası assistenti

muzaffarnosirov1992@gmail.comIlmiy rahbar: i.f.n (PhD) **R. R. Xojimatov**

Annotatsiya:Ushbu maqolada iqtisodiy risklarni baholash usullarini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi korxonalarining risk va noaniqlik muhitida faoliyat olib borishi va uning natijasida yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar:Menejer, iqtisodiy barqarorlik, risk, risklarni boshqarish, risk tahlili, korxonalar, strategiya.

KIRISH:Hammamiz yaxshi tushunamiz, har qanday islohot va o'zgarishni barqaror iqtisodiyotsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Biz o'tgan yil davomida bu borada keng ko'lamlı ishlarni boshladik. Lekin milliy iqtisodiyotimizni mustahkamlash, yurtimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun oldimizda hali ko'plab vazifalar turibdi [1]. Bu kabi ko'plab vazifalarni amalga oshirish uchun zamonaviy O'zbekistonda bugungi kunda ochiq ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini to'la shakllantirishi uchun radikal makroiqtisodiy qayta qurish olib borilmoqda va tez sur'atlarda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonining amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan ushbu jarayonlarda O'zbekiston korxonalarining xo'jalik yuritish faoliyat mexanizmi va ularning iqtisodiy erkinlik darajasida ham beqiyos darajada tubdan o'zgarishlar kuzatiladi. Bundan ko'rinadiki, bozor iqtisodiyotining noaniqlikka asoslangan va o'zgaruvchan sharoitida korxonalar faoliyatida riskning paydo bo'lishi va ularni boshqarish eng jiddiy va dolzarb masalaga aylanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI:«Zararlarning vujudga kelishi yoki daromadlarning ko'zda tutilgan darajadan kamroq olinishiga risk deyiladi». «Zamonaviy biznesda risk» kitobida P.G.Graboviy esa «risk» tushunchasi ma'nosida «Korxonalar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf ostida o'zlarining bir qism resurslarini yo'qotishi, ko'zlangan daromadga ega bo'la olmaslik yoki ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish natijasida qo'shimcha harajatlarning yuzaga kelishi tushuniladi» - deb aytib o'tiladi. Risk muammosiga bag'ishlangan yuqoridagi va quyidagi iqtisodiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar o'rtasida riskni talqin qilish bo'yicha yagona fikr mavjud emas. Professor I.A. Blank korxonalar riski tushunchasiga noaniqlik muhitida uning moliya-xo'jalik faoliyatini olib borishi natijasida daromad yoki kapitalni yo'qotish shaklidagi salbiy oqibatlarining yuzaga kelishi ehtimolligi deb ta'rif berib o'tgan. Shuningdek, rus olimlari I.Krilatyx, M.Lapusta, N.Xoxlovlar riskka resurslarni yo'qotish, foyda ololmaslik ehtimolligi yoki kutilmagan yo'qotishlarni yuzaga kelish ehtimolligi deb ta'rif beradilar. Professor B.Milner va professor F.Lins risk kompaniya kutilayotgan natijani ololmagan hollarda salbiy natija ehtimolligini o'zida aks ettiradi deb hisoblaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL:Tan olish kerak, hozirda risk muhitida O'zbekiston korxonalarining tashqi muhit omillarining tarkibiy qismlari: davlat xokimiyati va moliya institutlari bilan munosabatlar, texnologik va ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlanganlik, axborotlar va ularning oshkoraligi va ochiqligi, ta'minotchi va mahsulot sotib oluvchi korxonalar hamda iste'molchilar kabilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar ham beqiyos darajada tubdan o'zgarishi zarur, biroq hanuzgacha ushbu munosabatlar qat'iy raqobatli bozor shartlariga javob bermaydi va korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini o'sishini

ta'minlay olmayapti. Korxonalar menejerlarining risk muhitida faoliyat olib borish ko'nikmalarining yo'qligi va uni boshqarishning samarali tizimga ega emasligi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston korxonalari faoliyatida risklarni oldini olish, kamaytirishning ilmiy asoslangan choratadbirlarini ishlab chiqish va ularni boshqarishning tashkiliy-uslubiy mexanizmini tadqiq etish o'ta dolzarb hisoblanadi.

NATIJARLAR: Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonalar miqyosida yuzaga keladigan risklarning mohiyatini ochib berish, tasnif qilish, ularni yuzaga keltiruvchi ichki va tashqi omillarni o'rganish, risklarni baholash usullari, ularni kamaytirish muammolari mamlakatimiz iqtisodiyotida juda kam o'rganilgan. Bularning barchasi korxonalar faoliyatida risk muammosini tadqiq etish zarurligi haqida xulosa qilishga olib keladi. ulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal etish, O'zbekistonda risk va noaniqlik muhitida korxonalarni rivojlanishini ta'minlash uchun bizning fikrimizcha eng avvalo quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- korxonalarda risk va noaniqlik muhitida korxonaning rivojlanish strategiyasini mukammal ishlab chiqish va u bo'yicha tahlil tadbirlarini amalga oshirish tizimini yo'lga qo'yish va bu bo'yicha menejerlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;

- menejerlarda risk darajasini boshqarish imkoniyatlari tahlili, riskdan qochish yoki oldini olish yo'llarini o'ylash, risk omillari ta'sirida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni oldini olish va bartaraf etish harajatlarini kamaytirish yo'llarini izlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- risk paydo bo'lishining asosiy yo'nalishlarini aniqlash, hodisalar salbiy rivojlanishining yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish, risk omillari ta'sirida yuzaga keladigan iqtisodiy oqibatlarni oldindan baholash va risk omillarining yuzaga kelish ehtimolini hisobga olish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot bazani yaratish;

- to'la quvvat bilan ishlay olmayotgan, asosiy fondlarining jismoniy eskirish darajasi yuqori bo'lgan korxonalarni butunlay tugatish va ularning o'rnida zamonaviy innovatsion korxonalarni qurish amaliyotiga o'tish;

- korxonalarining ilg'or texnika va texnologiyalarni sotib olishiga davlat yordamini yanada jonlantirish;

- mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan korxonalarining xo'jalik faoliyatini rivojlantirishda demonopolistik chora tadbirlarni olib borish;

- davlatga qarashli bo'lgan korxonalarni xususiy lashtirishni jadallashtirish va uni tadbirkorlarga sotish, shundan so'ng ham ularni davlat oraliq nazoratini yo'lga qo'yish;

- korxonalar faoliyatida yangi turdagi zamonaviy, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashni kuchaytirish va natijani qat'iy talab qilish;

- bank tizimini liberallashtirish - ularga erkinliklarni berish asosida o'zlarining asosiy vazifasi — jamg'armalarni jalb etish va bu mablag'larni sarmoyaga aylantirish vazifasiga asosiy e'tibor qaratish, soliq tizimi va bojxona siyosatini takomillashtirish;

- tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarini yanada mustahkamlash;

- ko'plab me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan, ammo ular ishlaymaydi yoki yangi qabul qilingani boshqa hujjatlarga zid keladi, bu kabi nomutanosiblikni bartaraf etish.

XULOSA VA MUNOZARA: Demak yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Harq qanday korxonaning daromadiga ta'sir qiluvchi omillar ularning daromadiga ta'sir etuvchi risklarning darajasini o'zgarishiga to'g'ri proporsional bog'lanishga ega bo'ladi;

Korxonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklarni diversifikatsiyalash ularning foizli daromadiga to'g'ri proporsional bog'lanishga ega bo'ladi;

Korxonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklarni ta'sir darajasini o'rganishda diversifikatsiyalash modelidan foydalanish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr, №258 (6952).
2. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. - T.: «Mehnat», 1997 y. 165 bet.
3. Abdullaev Yo, Boboqulov Kredit: 100 savolga 100 javob.- T.: «Mehnat», 1996 y. 80 bet.
4. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Moliya», 2002 y.
5. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Mehnat», 1995 y. 387 – bet.
6. Балабанов И.Т. Риск - менеджмент. - М.: «Финансы и статистика», 1996. 456
7. Грабовий П.Г. и др. Риски в современном бизнесе - М.: Аланс, 1999.
8. Петров С.Н. Проблемы распределения рисков. / “Проблемы теории и практика управления”. № 5, 1999. с 108.
9. Akobirov S.F., Aliqulov T.A., Ibragimov S.I. va boshqalar; Ma'rufov Z.M., tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati. - M.: Rus tili, 1981y. 310b., 319b.